



## **XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON SHAHAR KENGASHI QARORI**

2022 - yil 18 - may

VI-57-90-7-106-K/22

Kattaqo'rg'on shahar hokimligi

### **Kattaqo'rg'on shahar 2-son hamda 11-son ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktablarini masofaviy ta'lim shakliga o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari shahar Kengashining oltinchi chaqiriq ellik yettinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Shahar Xalq ta'limi bo'limi mudiri J.Axmedovning 2-son hamda 11-son ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktablari binosida kapital ta'mirlash ishlari olib borilayotganligi sababli o'quv jarayonini qisman masofaviy ta'lim shakliga o'tkazish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar hokimi o'rinbosari (J.Nosirov), shahar Xalq ta'limi bo'limi (J.Axmedov)ga 2-son ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabining 5-6-7-8-10-sinf o'quvchilarini hamda 11-son ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabining 4-7-8-9-10-sinf o'quvchilarini 17-maydan boshlab ta'lim jarayonlarini maktab binosida kapital ta'mirlash ishlarini butkul tugatilmaguniga qadar masofaviy ta'lim shaklida olib borishini tashkillashtirish mas'uliyati yuklansin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (U.Sharipova) hamda shahar

hokimining o‘rinbosari (J.Nosirov) zimmalariga yuklansin.

**Kengash raisi**



**G. Alimova**